

O'ZBEKISTON VA TURKIYA IQTISODIY ALOQALARINING O'SISHI(2017- 2024-YILLARDA)

Yusufjanov Ulug'bek Javlon o'g'li

Turan xalqaro universiteti tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, Turkiya bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. 2017 yildan boshlab ikki davlat o'rtasida savdo, investitsiya va sanoat sohaslarida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Turkiya, savdo, iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar, sanoat hamkorligi, strategik hamkorlik, iqtisodiy o'sish, tashabbuslar, innovatsiyalar, mintaqaviy barqarorlik.*

O'zbekiston – Turkiya munosabatlari. Turkiya O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olib, ikki davlat o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilgach, 1992 yil aprelda Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbulda O'zbekiston Respublikasi ning Bosh konsulxonasi ochildi. O'ZB Prezidenti I. A. Karimov 1991-yil dekabr, 1994-yil iyun va 1997-yil noyabrda rasmiy tashrif bilan T.da bo'ldi. 1998-yil oktabrda T. Respublikasining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. O'z navbatida, T. Prezidentlari T. O'zal, S. Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldilar. Ana shu tashrif va muloqotlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston bilan T. o'rtasida „Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida“gi shartnoma hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalar, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, huquqiy yordam, sog'liqni saqlash, transport, sayyohlik, madaniyat va boshqa sohalarda 78 hujjat imzolandi. Qozog'istonda Ozarbayjon tashabbusi bilan turkiy dunyo savdo belgilarini birlashtirgan “Made in Turan brendi” yaratildi.“Made in Turan” brendi uchun olinadigan maxsus imtiyozlar tufayli turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi savdo aylanmasi oshadi va iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi. Iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari ko'pincha ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar orqali mustahkamlanadi. Erkin savdo zonalarini yaratish to'g'risidagi bitimlar va investitsiyalarni himoya qilish bo'yicha kelishuvlar O'zbekiston va Turkiya tilli davlatlar o'rtasida savdo hajmini oshirish va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Transport va logistika sohasidagi huquqiy asoslar ham aloqalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Birgina transport va logistika sohasida Turkiya bilan hamkorlik istiqbollari tahlil qiladigan bo'lsak, Turkiya Yevropa va Osiyoning chorrahasida joylashgan o'zining geografik joylashuvi tufayli O'zbekiston tovarlarini jahon bozorlarida sotish uchun qulay punktga aylanishi mumkin. Uning hududidan to'rt soatlik parvoz 1,5 milliard aholiga ega bozorga yo'l ochadi. Qolaversa, rivojlangan transport va logistika tizimi tufayli Turkiya yillik aylanmasi qariyb 18 milliard

dollar bilan transport sohasida dunyoning birinchi 20 davlati qatoriga kiradi. Shu bilan birga, "Trans-Kaspiy" savdo yo'li O'zbekiston tomonidan qo'llab-quvvatlangan Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" loyihasiga juda mos keladi ("Bir makon bir yo'l" va "Trans-Kaspiy" savdo yo'llari bo'yicha tashabbuslarni muvofiqlashtirish bo'yicha anglashuv memorandumini 2015-yilda imzolangan). O'zbekiston va Turkiy tilli davlatlar o'rtasida erkin harakatlanishni ta'minlash uchun "Trans-Kaspiy" savdo yo'li kabi loyihalar dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu loyiha O'zbekistonning savdo va eksport imkoniyatlarini kengaytirib, mintaqadagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq, transport va logistika infratuzilmasidagi kamchiliklar, xalqaro savdo jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston va Turkiy tilli davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab birinchi navbatda turkiy tilli davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantira boshladi. Bu holatda birinchidan til va din uyg'unligi; ikkinchidan xalqlarimiz o'rtasida tarixan aloqalarning mavjudligi; uchinchidan xalqlarimizning madaniyat, urf-odat va an'analaridagi o'xshashliklar do'stlik va ittifoqchilik aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston 1991-yilda 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. O'zbekistonning birinchi bo'lib mustaqilligini tan olgan davlat Turkiya edi. O'zbekiston va Turkiy tilli davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab birinchi navbatda turkiy tilli davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantira boshladi. Bu holatda birinchidan til va din uyg'unligi; ikkinchidan xalqlarimiz o'rtasida tarixan aloqalarning mavjudligi; uchinchidan xalqlarimizning madaniyat, urf-odat va an'analaridagi o'xshashliklar do'stlik va ittifoqchilik aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston 1991-yilda 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. O'zbekistonning birinchi bo'lib mustaqilligini tan olgan davlat Turkiya edi. Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekiston va Turkiy davlatlar munosabatlarni abadiy do'stlik va strategik hamkorlik darajasiga olib chiqishning huquqiy asoslarini yaratishdi. Shu jumladan O'zbekiston va Turkiya o'rtasida abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma; O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnomalar yuqorida keltirilgan fikrlarning dalilidir. Turkiy davlatlar o'zaro aloqalarni mustahkamlashda iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish, savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida shartnoma va kelishuvlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda erkin savdo hududlari, investitsiya loyihalari va xalqaro transport yo'laklarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish va hamkorlikni yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston va Turkiy tilli davlatlar o'rtasida qabul qilingan iqtisodiy hamkorlik bitimlari iqtisodiy jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Misol uchun 2023-yil Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida "Markaziy Osiyo" sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazi faoliyatini tartibga solish

to'g'risida bitim imzolandi. Undan tashqari 2021-yil 10-sentabr kuni Ozarbayjon poytaxti Baku shahrida Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot bo'yicha mas'ul vazirlarining 10-yigilishi bolib otdi. Uchrashuvda vazirlar kun tartibidagi masalalar, jumladan, "Texnik-iqtisodiy asoslash" va Turk investitsiya fondini tashkil etish to'g'risida bitim; Turkiy davlatlarning savdo-sanoat palatalarining (TSSP) huquqiy nizomi va keyingi faoliyati; a'zo davlatlarda turkiy savdo uylarini tashkil etish. Vazirlar, shuningdek, 2021-yilda Vengriya (Budapesht) va 2022-yilda Qirgiziston (Bishkek)da biznes va sarmoyaviy forumlarni tashkil etish masalalarini ham muhokama qildilar. 2022-yil 9-noyabr kuni Strategik tadqiqotlar markazi Turkiy Davlatlar Tashkilotining 9-Strategik tadqiqotlar markazimati arafasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot va savdo bo'yicha mas'ul vazirlarining 11-yigilishi bolib otdi. Yig'ilish kun tartibi doirasida Iqtisodiyot va savdo vazirlari va vazir orinbosarlari Turkiy investitsiya jamgarmasi, Turkiy savdo uylari va "TURAN"ni tashkil etish masalalari bo'yicha fikr almashdilar. Maxsus iqtisodiy zona, TDTga a'zo davlatlarning ixtisoslashgan tashkilotlari negizida "Turkiy tilli davlatlarning savdo hamkorligi ilmiy-tadqiqot markazi" va "Muhandislik va texnologiyalar markazlari"ni tashkil etish. Tomonlar, shuningdek, TDT2 doirasida kop tomonlama "Xizmatlar va investitsiyalar bo'yicha erkin savdo bitimi", "Raqamli iqtisodiyot bo'yicha hamkorlik togrisidagi bitim"ni muhokama qilishdi va takliflar berishdi; 2022-2026 yillarga moljallangan TDTga a'zo davlatlarning investitsiyalarni ragbatlantirish agentliklari ortasida hamkorlikni kengaytirish va potentsial investitsiya loyihalari qoshma TDT katalogini va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan TDT strategiyasida belgilangan savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni tayyorlash. Uchrashuv yakunida delegatsiyalar rahbarlari Turkiy Davlatlar Tashkilotining Iqtisodiyot va savdo masalalari bo'yicha 11-Vazirlar yigilishining kommyunikesini imzoladilar hamda savdo hajmini oshirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar va tashabbuslarni ishlab chiqadigan "Savdoni osonlashtirish strategiyasi hujjati"ni ma'qulladilar, shuningdek, a'zo va kuzatuvchi davlatlardagi savdo tosiqlari va cheklovlarini bartaraf etish choralari korildi. Bunday erkin savdo bitimlari, bojxona ittifoqlari va investitsiyalarni himoya qilishga doir kelishuvlar iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti tashkil topganidan buyon 12 ta vazirlar va 14 ta ishchi guruh yig'ilishlari tashkil etildi. Iqtisodiy sohada hamkorlik natijasida a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha anglashinuv memorandumlari imzolandi. Ushbu bitimlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi, balki taraflarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga ham xizmat qiladi. Yildan-yilga O'zbekiston Turkiy davlatlar o'rtasida o'zaro savdo va investitsiyaviy aloqalar yaxshilanmoqda. Lekin sohada o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolarni keltirib o'tishimiz kerak.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar 2017-2024 yillarda sezilarli darajada o'sdi. Bu jarayon siyosiy barqarorlik, savdo-sotiqni rag'batlantirish va investitsion muhitning yaxshilanishi bilan bog'liqdir. Kelajakda hamkorlik yanada kengayishi kutilmoqda, bu esa ikki mamlakat iqtisodiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. O‘zbekiston va Turkiya strategik hamkorligining mohiyati va ahamiyati | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti <https://isrs.uz/en/maqolalar/suti-znacenie-strategiceskogo-sotrudnicstva-mezdu-uzbekistanom-i-turciej>
2. <https://uzreport.news/society/o-zbekiston-va-qozog-iston-o-rtasida-markaziy-osiyo-sanoatkooperatsiyasi-xalqaro-markazi-09/01/23/>
3. Organization of Turkic States attaches great importance to economic cooperation. <https://www.turkicstates.org/en/isbirligi-alarlari#2-economic-cooperation>.
4. Shodiqulov.E.A. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik tashkiloti a'zo davlatlari iqtisodiy , ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, savdo-investitsiyalar sohasidagi muhim o‘zgarishlar. SCIENCE AND SOCIETY – НАУКА И ОБЩЕСТВО – ФАН ВА ЖАМИЯТ.2023.
5. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/download/12430/11952/12221>
6. <https://kun.uz/news/2023/03/04/ozbekiston-va-turkiya-ortasida-diplomatik-munosabatlar-oratilganiga-31-yil-toldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F03%2F04%2Fozbekiston-va-turkiya-ortasida-diplomatik-munosabatlar-oratilganiga-31-yil-toldi>